



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Ro'ziyeva Habiba Esanmurodovna

Samarqand davlat universiteti O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

TALABALARNING IJODKORLIK KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya. Maqolada talabalarning mustaqil, ijodiy faoliyat ko'rsatishlariga ko'maklashish ularning o'z darajalarini aniqlashlari va amalda tatbiq etishlari uchun sharoit yaratish, ijodiy faoliyatlarini pedagogik qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlar borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: faoliyat, ijodiy, barkamol avlod, shaxsiy faollik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, ijodiy fikrlash ko'nikmalari, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В статье акцентируется внимание на инновационных подходах к поддержке самостоятельной, творческой работы студентов, созданию условий для определения ими собственного уровня и реализации его на практике, поддержке их творческой деятельности.

Ключевые слова: активность, творчество, гармонично развитое поколение, личностная активность, личностно-ориентированное образование, навыки творческого мышления, инновационный подход.

Annotation. The article focuses on innovative approaches to support students' independent, creative work, to create conditions for them to define their own level and put it into practice, and to support their creative activities.

Keywords: activity, creativity, harmoniously developed generation, personal activism, person-centered education, creative thinking skills, innovative approach.

O'zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va qat'iy qaror toptirish



nihoyatda murakkab tarixiy va ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga to'g'ri kelmoqda. Fuqarolar ongi va dunyoqarashi, ruhiyatini eskicha qarashlardan, boqimandalik, tashabbussizlik, mute'lik, qaramlik kabi illatlardan soqit etish, tozalash yana ham murakkab ijtimoiy muammodir. Bu darajada ulkan va keng miqyosli tadbirlarni jamiyat hayotining barcha jabhalarida bosqichma-bosqich, bir tekisda uyg'un va izchil amalga oshira borish uchun yangi zamon talablariga javob bera oladigan, yangicha ong va dunyoqarashga ega bo'lgan, erkin, ijodiy va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalab yetishtirish eng muhim vazifalarimizdan biridir.

Oliy ta'lim tizimidagi o'quv jarayoni talabalarning inson va jamiyat, tarix va madaniyat haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, tayanch fundamental bilimlarni egallash, ilmiy faoliyatga yo'naltirish, kasbiy pedagogik bilim asoslarini singdirish, pedagogik kreativlikni rivojlantirish im koniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim olish va ijodiy pedagogik faoliyatini davom ettirish huquqini ta'minlashdan iborat. Bo'lajak o'qituvchi shaxsini rivojlantirishning umumilmiy, psixologik-pedagogik asoslarini ijtimoiy his-tuyg'ular va moslashish asosida ijtimoiy qiyinchiliklarni bartaraf etish, ta'lim jarayonini tavsiflovchi omil sifatida ijtimoiy muhitning ustuvorligi, jamiyatga munosabat va jamiyat oldidagi burchni ado etishga kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan yondashish, shaxsning shakllanish asosi sifatida mayllarning rivojlanishiga oid nazariy yondashuvlar va ijtimoiy pedagogik g'oyalar tashkil etadi.

Har qanday shaxs kasbiy bilimlarning rivojlanishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shuning uchun ham shaxs o'zining ijodkorligi bilan kasbiy faoliyat tajribasini yaratishi, boyitishi, to'ldirishi lozim. Bunday tajribalarni talaba oliy pedagogik ta'lim muassasalarida o'zlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradi. O'qituvchi shaxsi har doim muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy faoliyat ko'nikmalarini namoyon eta olishi kerak. Shundagina u o'z kasbiy faoliyati davomida ijodkorligini namoyon eta oladi.

Bugungi kunda o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabalardagi ijodkorlik sifatlarini shakllantirishda yetakchi vositalardan biri ekanligini «o'zini-o'zi boshqarish», «o'zini-o'zi rivojlantirish», «shaxsiy faollik», «o'zini-o'zi tashkil qilish» kabi tushunchalarning shaxsga yo'naltirilgan ta'lim amaliyotida qo'llanishi ham asosiy dalil bo'lishi mumkin. Bularning hammasini umumlashtiruvchi jihat shundaki, subyektning o'zi o'zining o'qish, ta'lim va rivojlanish jarayonining tashabbuskori va tashkilotchisi bo'ladi, ya'ni ta'lim oluvchi – talaba bilishning subyektiga aylanmaydi, balki avval boshdan shunday sanaladi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, interfaol o'qitish jarayonida talabalarda kreativ (ijodkorlik) qobiliyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish hamda pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarida kreativ qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy- metodik tavsiyalar yaratish tarzida belgilanib, zaruriy tadqiqot vazifalari shakllantiriladi. Talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mazmunini DTS talablari asosida tahlil etilib, «kreativlik», «kreativ qobiliyat», «pedagogik kreativlik», «interfaol o'qitish», «interfaol o'qitish sharoiti», «talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish» kabi asosiy tushunchalarni tahlil etish kerak hisoblanadi. Belgilangan ilmiy tadqiqotning vazifalari amaldagi ijrosi tadqiqot ishining umumiy

mazmunida mavzuga oid falsafiy, ilmiy-pedagogik, psixologik manbalar va mavjud holatni tahlil qilish asosida interfaol o'qitish jarayonida talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarda ko'zga tashlanadi.

Professor N.N.Azizxodjayevaning fikriga qo'shilgan holda, talabalarning bilish faolligi va shu asosda ulardagi ijodiy intilishni qo'llab-quvvatlash vositalari quyidagi maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligini ta'kidlamoqchimiz:

a) barcha ta'lim oluvchilarni umumiy pedagogik qo'llab-quvvatlash (talabalarga diqqat bilan, yaxshi munosabatda bo'lish, ularni o'quv-bilish jarayonini rejalashtirishga jalb qilish, o'zaro o'qitish muhitini yaratish, ta'limning faoliyatli mazmuni, o'rgatuvchi o'yinlar, rang-barang ijodiy ishlar, ularning yutuqlarini ijobiy «muvaffaqiyat zinapoyasi»da baholash, dialogik muloqotdan foydalanish);

b) individual-shaxsiy qo'llab-quvvatlash (talabaning shaxsiy muammolarini aniqlash; rivojlanish, tarbiyalanganlik, o'qishni takt bilan tashxislash; har bir talabaning rivojlanish jarayonini kuzatib borish; pedagogik yordam va qo'llab-quvvatlash zaruratini talabaning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'minlash va b.).

Mazkur yondashuvlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchi kasbiy faoliyatining ijodkorlikka yo'naltirilganligini to'la qonli tarzda o'rganish uchun munosabat nazariyasi nuqtai nazaridan yondashish kerak. Chunki munosabat shaxsning mayllarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu asnoda shaxsning kasbiy yo'nalganligini aniqlash imkoniyati vujudga keladi.

Fikrimizcha, talabalarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizimni vujudga keltirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik sharoitlarini yaratish;
- talabalarning ijodiy fikrlashiga qo'yilgan talablarni aniqlash;
- talabalarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini o'ziga xos pedagogik texnologiya jihatlarini aniqlash. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, bizda hozirgi davrda har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish andozasi (modeli) ishlab chiqildi. Zero, komil inson tarbiyasi respublikamizni jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari darajasida ko'rsatishga xizmat qiluvchi salohiyati, mustaqil fikrlaydigan, erkin, ijodkor shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, bo'lajak o'qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday chora-tadbirlarni amalga oshirmasdan turib, talabalardagi ijodkorlikni rivojlantirish, ularni ijodiy pedagogik faoliyatga tayyorlash imkonsizdir.

Xulosa qilib aytganda, mazkur jarayonda bo'lajak o'qituvchilarda mavjud pedagogik innovatsiyalar, ularning xarakterli xususiyatlari, qo'llanish parametrlari, innovatsion o'qitish imkoniyatlari haqida ilmiy asoslangan axborotlar berish maqsadga muvofiqdir. Muvaffaqiyatli ijodiy muhitgina talabalar tomonidan yangiliklarni faol o'zlashtirish va o'z faoliyatiga tatbiq etishga o'rgatish imkonini



beradi. Bu esa ularning kelgusidagi pedagogik faoliyatlarida bir xillikdan voz kechishlariga ko‘maklashadi. Yuqoridagilar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, bunday mutaxassislar o‘quvchilarga ham, o‘ziga ham pedagogik jarayonning subyektivi sifatida ijodiy yondasha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. – T.2006.160-b
2. Nishonova S. Sharq Uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. Ped. fan. dokt. diss.- T.: 1998.-42-b.
3. Усмонбоева М., Тўраев А. «Креатив педагогика» ўқув услубий мажмуа. – Т., ТДПУ, 2017. 120-б.
4. Бакиева О.А. Методика преподавания изобразительного искусства. Учебное пособие. –Тюмень: Изд-во Томенского государственного университета. 2012. – 200 с.
5. Давлетшин М. Г. Совершенствование подготовки учительских кадров. // Вопросы психологии. –Москва. 2000. №5. – С.88.
6. Rustam Shadiev, Wu-Yuin Hwang, Narzikul Shadiev, Mirzaali Fayziev, Tzu-Yu Liu, Lingjie Shen. Smart watches for making EFL learning effective, healthy, and happy // Challenges and Solutions in Smart Learning. Proceeding of 2018 International Conference on Smart Learning Environments, Beijing, China. 2018. 73-76 p. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-981-10-8743-1_11
7. Fayziyev M.A. Axborot texnologiyalarini o‘rganish jarayonida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish // Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi. ISSN: 2181-1776. Vol. 1 No. 02 (2021). 113-123 b. <https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/42>